

## BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING KREATIVLIK QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10649184>

**G'affarova Farangiz G'ayrat qizi**

*Jizzax davlat pedagogika universiteti talabasi*

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativlik qobiliyatini rivojlanirish usullari, vositalari, metodlari haqida ma'lumotlar, manbalar keltirib o'tilgan. Maqolada keltirilgan ma'lumotlar asosida o'qituvchilar va ota-onalar o'zlariga kerakli ma'lumotlarni olishlari mumkin.

### **Kalit so'zlar**

*ta'lim, metodika, ijodkorlik, fikrlash, mashq, belgi, usul, vosita, kreativlik, tafakkur, erkinlik.*

Kreativlik ( yunoncha creatio- yaratish)- bu insonning noodatiy g'oya berish, fikrlash qobiliyatidir. An'anaviy fikrlardan voz kechib, muammolarning takrorlanmas, original yechimini topa bilish ham aynan kreativlikka xosdir. Kreativlik bilan shaxs va intellektual xossalari taqqoslangan ko'plab tadqiqotlar mavjud. Aynan shunday tadqiqotlardan biri Dj.Gilford tomonidan amalga oshirilgan. Kreativlik insonning shaxsiy xususiyati bo'lib, inson o'zini rivojlanirib, takomillashtirib borishi bilan bog'liq bo'lgan jarayon hisoblanadi.

Bolalarda kreativlikni rivojlanirishda asosan nimalarga e'tibor qaratishimiz lozim? Avvalo, bolalarning erkin fikrlashiga, erkin muloqotga kirishishiga sharoit yaratib berishimiz lozim. Chunki, qachonki ular o'zining fikrini bemalol boshqalarga ham yetqaza olsa, ana o'shanda o'sish uchun ilk qadam qo'yilgan hisoblanadi. O'zida bor fikrni, g'oyani qo'rqib yoki hijolat bo'lib, o'ziga ishonmay o'zgalarga yetqaza olmas ekan, bolada o'sish bo'lmaydi. Shuning bilan bir qatorda bolaning qiziqishiga ham alohida e'tibor qaratish lozim. O'quvchilar qachonki qilayotgan ishidan zavq olsa, qiziqib, maroq bilan ishlasa, ulardan ko'plab tashabbuslar chiqishi mumkin. Inson qiziqqan mashg'ulotidan aslo zerikmaydi, qancha ko'p bu ish bilan mashg'ul bo'lmasin toliqmaydi. Iloji boricha yaratishga intiladi. Yana, qachonki o'quvchilarda savollar tug'ilsa javobdan aslo qochmaslik lozim. Ular savoliga javob olsa, tushunmagan joyini to'ldirib ketsa, bu ular uchun foydali. Qo'lidan kelgancha o'qib, izlanishdan to'xtamasliklari uchun turtkidir. Dars

davomida bolalarning kreativ fikrlash qobiliyatlariga poydevor qo'yib borish zarur. Bu poydevorni turli xil metodlar qo'llash orqali quramiz. Hozirgi kunda ommalashgan noan'anaviy metodlardan " Bo'lishi mumkin emas", " Beshinchisi ortiqcha", " Noto'g'ri jumla" kabi metodlar ona tili va o'qish savodxonligi darslarida ayniqsa qo'l keladi. Bundan tashqari boshlang'ich sinflarda quyidagi o'yinni qo'llashni ham tavsiya etaman. Avvalo, darsga ko'rgazmali quollar olib kelamiz. Parta ustiga 6-7 ta turli xil hayvon o'yinchoqlaridan qo'yamiz.

O'quvchilarga shu hayvonlar ishtirokida kichik ertak yaratish topshirig'i beriladi. Buning uchun 10 daqiqa vaqt ajratamiz. Sinfdag'i har bir o'quvchi o'z dunyoqarashi, fikrlash qobiliyati orqali turlicha ertak yaratadi. (Masalan deb tuzgan birorta ertak yozilsa, yana ham tushunarli bo'ladi) Bu jarayonda ularning ijodkorlik mahorati, topshiriqqa kreativ yondasha olishi yaqqol namoyon bo'ladi. Eng mazmunli, kreativ ertak aniqlanib, bu o'quvchi rag'batlantiriladi. U yaratgan ertakni sinf bilan ishlab spektakl sifatida namoyish qilamiz. Bu metod o'quvchilarni kreativ yondashishga, fikrlashga, ijodkorlik qobiliyatini ishga solishga undaydi.

Kreativ fikrlashga nima to'sqinlik qiladi?

1. Boshqalarga tobe bo'lish;
2. O'zini tavakkaldan, mas'uliyatdan olib qochish;
3. Fantaziyasini, dunyoqarashini past baholash;
4. Ishonchsizlik;
5. Faqat yutuq uchun intilish;
6. Shaxsiy fikrni o'zgalarga yetqizishdan cho'chish;
7. Xato qilishdan qo'rqish;

Barchamizga ma'lumki, ta'lim jarayoni o'zaro hamkorlikda olib boriladi. Ya'ni o'qituvchi va o'quvchining hamkorligi. Bu jarayonda mas'uliyatni faqat o'qituvchiga yoki o'quvchiga yuklab qo'yish mutlaqo xato. Ta'lim jarayonida rahbar o'qituvchi hisoblanib, u o'quvchilar bilan birgalikda, hamkorlikda dars mashg'ulotlarini olib borishi maqsadga muvofiqdir. Qachonki, o'qituvchi darsni to'g'ri tashkillashtira olsa, materillarni to'gri tanlasa, metod va vositalardan o'z o'rnida foydalana olsa o'quvchilarning o'zlashtirishi mahsuldor bo'ladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida asosiy e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan jihat, bu ularning tayyorgarlik darajasidir. Maktabga qadam qo'ygan har bir bolaning o'ziga yarasha bilimi, fikrlashi, tayyorgarligi mavjud. Hamma ham tayyorlov kurslarida yoki maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim olmagan. Shuning uchun ham ularning bilim-saviyasi bir xil emas. O'qituvchi metod, usullar qo'llashdan oldin shu jihatlarga alohida e'tibor qaratishi, sinf holatiga, bilimiga bir razm solishi

darkor. Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ishlashda o'qituvchi qaysidir ma'lumotga aniqlik kiritish uchun ulardan yordam so'rayotgandek murojaat qilishi yoki turli xil o'yinlar, boshqotirmalar orqali guruh bo'lib ishlashi maqsadga muvofiqdir. Bu orqali o'qituvchi va o'quvchi o'rtaida kontakt o'rnatiladi. Ular o'rtaсидаги о'заро hamkorlik bilim olish jarayonida juda qo'l keladi.

Bolalarda kreativlik qobiliyatini rivojlantirishda muammoli ta'limdan foydalanish samarali usullardan biri hisoblanadi. Muammoli ta'lim o'quvchilarni mantiqiy, ilmiy fikrlashga undaydi.

Turli xil tadqiqotchilik metodlari, kashf etish, muammo yechimini mustaqil hal qilish kabi usullar bo'lsa, bolalarda ijodiy fikrlashni o'stiradi.

Yuqoridagi metod va usullar orqali bolalarda o'quv materialiga bo'lgan ishonch paydo bo'ladi. Chunki ular nazariya va amaliyotni uyg'un holda olib borib, bilimni yanada mustahkamlaydi va natijasini o'z ko'zi bilan ko'radi. O'sha tabiiy muhitda o'zi ishtirok etadi. O'ziga bo'lgan ishonchni orttiradi. Mantiqiy, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini paydo qiladi.

Xulosa ornida aytish mumkinki, o'quvchilarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishda o'qituvchining roli, u e'tibor qaratishi lozim bo'lgan bir qancha jihatlar mavjud. Bu quyidagilardan iborat:

1. Ta'lim jarayonida o'qituvchining materillarni tanlashda e'tiborli bo'lishi lozim;
2. Boshlang'ich sinf o'quvchilari tayyorgarlik darajasini hisobga olish zarur;
3. O'quvchilarga yetarli darajada erkinlik berish;
4. Shuningdek, ularning kreativ fikrlarini rag'batlantirish, ularni tinglash zarur

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Jo'rayev P.X, Raximov B,X Yangi pedagogik texnologiyalar. Muammoli ta'limga asoslangan o'quv-metodik qo'llanma. Fan, -2005
2. Innovatsion ta'lim texnologiyalari va pedagogik kompetenlik moduli bo'yicha o'quv-uslubiy qo'llanma. Toshkent-2016
3. "Pedagogik kompetentlilik va kreativlik asoslari" moduli bo'yicha o'quv uslubiy qo'llanma. Toshkent -2015